

G'AFUR G'ULOM IJODIDA SHARQ MUMTOZ ADABIYOTI AN'ANALARI

Usmonov Ibrohim Alisher o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

email: usmonov8712@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19328672>

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulovning tadqiqotlari asosida G'afur G'ulom ijodining manbalari va badiiy shakllanish omillari tahlil etiladi. Maqolada shoir ijodining fors-tojik adabiyoti, xususan, Rudakiy, Firdavsiy, Xayyom, Sa'diy va ayniqsa, Mirzo Bedil poetikasi bilan uzviy bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqotda G'afur G'ulomning "Sharq shoiri" sifatidagi o'ziga xosligi, uning asarlaridagi falsafiylik, ramziy obrazlar va murakkab tashbehlarining tahlili ko'rsatib berilgan. Shuningdek, shoirning tarjimonlik mahorati va klassik merosni zamonaviy she'riyatga tatbiq etish tamoyillari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sharq mumtoz adabiyoti, fors-tojik adabiyoti, badiiy tafakkur, Mirzo Bedil, tasavvuf, poetika, ijodiy ta'sir

O'zbek adabiyotshunosligida G'afur G'ulom ijodining manbalari va shakllanish omillarini tadqiq etishda Ibrohim Haqqulov qarashlari muhim ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Uning "Fors-tojik adabiyoti va G'afur G'ulom ijodiyoti" mavzusidagi mulohazalari shoir ijodining ildizlarini va badiiy tafakkur manbalarini ochib berishda alohida ahamiyat kasb etadi. Avvalo, olimning kim ekanligiga to'xtalsak, Ibrohim Haqqul – filologiya fanlari doktori, professor, "Mehnat faxriysi" II darajali ko'krak nishoni sohibi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, o'zbek adabiyotshunosligining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan va o'zbek adabiyoti namunalarini yangicha tahlil va talqinda tadqiq etgan olim. Professor Ibrohim Haqqul ham mumtoz, ham muosir, shuningdek, jahon adabiyoti namunalarini tadqiq eta oladigan olimlardan. I.Haqqul ijodisiz adabiyot va adabiyotshunoslik muvaffaqiyatlarini tasavvur etish qiyin. Xususan, ruhshunoslik hisoblangan mumtoz adabiyotimizdagi g'oya, obraz, ramz va timsollar olamiga safar "Tasavvuf va she'riyat" bilan boshlangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Va aytish mumkinki, undan keyingi aksar tadqiqotlarda mana shu insonshunoslik, mohiyatbinlik, fano va baqo falsafasi nuqtai nazaridan talqinlar paydo bo'ldi va hanuz davom etmoqda. Tasavvufshunos olim Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab kabi ijodkorlarimiz asarlari misolida tasavvufning turli jihatlariga e'tibor qaratdi, mazkur ijodkorlar shaxsiyati va ijodi tadqiqotidagi aniqlik qolgan barcha ijodkorlarimiz adabiy merosi haqida ham yorqin tasavvur

uyg'otdi. I.Haqqul adabiyotshunoslikdagi tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalarga qo'l uradiki, buning natijasida hatto kichik maqolalaridagi tezislardan ham juda katta tadqiqotlar yaratildi.

Haqqulov G'afur G'ulom ijodini Sharq mumtoz adabiyoti bilan ajralmas holda talqin qiladi. Bu yondashuv tasodifiy emas, chunki shoirning badiiy tafakkuri aynan fors-tojik adabiy muhitida shakllangan. G'afur G'ulomning o'zi: "Men Sharq shoiriman", deya ta'kidlashi shundan dalolat qiladi. U Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Saadi Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarni o'ziga ma'naviy ustoz sifatida e'tirof etadi. Bu holat shoir ijodining intertekstual tabiatini, ya'ni turli adabiy qatlamlar bilan ichki bog'liqligini ko'rsatadi.

G'afur G'ulomning forsiy adabiyotga chuqur kirgan. Shoirning "ularning asarlari ona suti bilan birga qonimga singgan" degan e'tirofi buni tasdiqlaydi. Demak, G'afur G'ulom ijodida kuzatiladigan falsafiylik, obrazlilik va ohangdorlik bevosita fors-tojik mumtoz poetikasi bilan chamcharchas bog'liq.

Ayniqsa, Mirzo Bedil ijodining ta'siri alohida e'tiborga loyiq. G'afur G'ulom Sharq shoiri sifatida Bedildan ko'p ta'sirlangan, buni u o'z asarlarida ham bir necha marta ta'kidlab ko'rsatgan, Bedil adabiyotga olib kirgan ko'pgina obrazli ifodalar uning asarlari matniga ham ko'chib o'tgan. Chunonchi, yorug' dunyo, olam degan ma'nodagi "xonai xurshid" tashbehi uning she'riyatiga Bedildan ko'chib o'tgan. Bedil o'z davrida "malikush shuaro" bo'lib tanilgan va keyingi asrlarda "Abulmaoniy" – "ma'nolar otasi" deb ham e'zozlangan shoirdir. Biroq G'afur G'ulom Bedil asarlarini tarjima qilishga uncha rag'bat ko'rsatmagan. Bedilga xos fikr teranligini, bir misrada bir necha ma'no qavatlanib kelishini yana to'laligicha qayta tiklash amri maholligini his etgani sababli, uni faqat asliyatda o'qish lozim deb hisoblagan. Bu ham, shoir tarjimalariga oid tadqiqotlar olib borgan Abdulla Matyoqubov va Narzulla Jo'rayevlar to'g'ri ta'kidlaganlariday, kitobxon oldidagi mas'uliyat, Bedilga samimiy ixlosning bir zuhuri edi. Bedilni G'afur G'ulomning eng yaqin ruhiy ustozlaridan biri sifatida ko'rsatiladi. Shoirning "Vaqt" she'rida Bedilni tong saharda o'qishi, uning tafakkurini poklovchi, ruhiy uyg'otuvchi manba sifatida talqin etilishi bejiz emas.

*Tong otar chog'ida juda sog'inib,
Bedil o'qir edim, chikdi oftob.
Loyka xayolotlar chashmaday tindi,
Pok-pokiza yurak bir qatra simob.*

Bedil poetikasiga xos murakkab falsafiylik, tasavvufiy mushohada va ramziy obrazlar tizimi G'afur G'ulom she'riyatida yangicha, zamonaviy talqinda namoyon bo'ladi. G'afur G'ulom bir she'rida:

Bu gangur-gungur ichra erku mehnat zavqini surgan

G'afurdek keksa shoir bu - G'ulumuf nomli Xayyoming, —

desa, boshqa birida:

Yurak hovuch ichida tepada gup-gup,

Firdavsiy misrasiday tomirda g'ulu, —

deydi.

Bunday ishoralar ham G'afur G'ulomning she'rlarida Xayyom, Firdavsiy yoki Sa'diy ijodiga xos falsafiy chuqurlik, muazzam ohangdorlik, obrazlilikni anglashga yaqindan yordam beradi.

Muxtor Avezov ta'kidlaganidek, haqiqiy ta'sir san'atkor qalbiga singib, uning "ikkinchi tabiatiga" aylanadi. G'afur G'ulom misolida ham aynan shu jarayon kuzatiladi. U darveshona erkinlik ruhini, keng dunyoqarashni, hayotga falsafiy yondashuvni o'zlashtiradi, biroq bu unsurlarni bevosita takrorlamaydi, balki o'z zamonasining ijtimoiy-estetik talablariga mos holda qayta talqin qiladi.

Bundan tashqari, G'afur G'ulomning tarjimonlik faoliyati ham uning fors-tojik adabiyoti bilan aloqalarini mustahkamlaydi. U Sa'diy Sheroziy va Abdurahmon Jomiy kabi shoirlar asarlarini tarjima qilish orqali nafaqat ularni o'zbek kitobxoniga yaqinlashtiradi, balki o'z poetik tafakkurini ham boyitadi.

Xulosa qilib aytganda, Ibrohim Haqqulov tomonidan ilgari surilgan qarashlar G'afur G'ulom ijodining Sharq mumtoz adabiyoti bilan uzviy aloqadorligini ilmiy asosda yoritadi. G'afur G'ulom ijodini Sharq mumtoz adabiyoti, ayniqsa fors-tojik she'riyati an'analaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi.

Foydalaniladigan adabiyotlar:

1. Zuhridin Isomiddinov. "G'afur G'ulom tarjimalari". 2013-yil "Jahon adabiyoti" jurnali, № 5.

2. G'afur G'ulom ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati: Ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. – Toshkent, 2003.